

Isoqova Mahliyo Ilhomjon qizi
*Özbekiston davlat konservatoriyas Akademik xor
dirijorligi 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur ishda Özbekiston davlat musiqali komediya (operetta) teatining qachondan faoliyat kôrsatgan. Teatr kundan boshlab spektakldan qandar asarlar ñerin olgan, hozirgi kundagi repertuari, teart jamoasing ijodi qaysi davlarlariga ham tanildi.*

Kalit sôzlar: *drama, teatr, san'at, repertuar, janr, orkestir, xoreografiya, balet.*

Teatr shunchaki oddiy tomosha emas balki tarbiya ma'rifat-ma'naviyat maskanidir. Unda har bir tomoshabin o_z-o_ziga chetdan nazar solishi, hatti harakatlarini qayta tahlil qilishi va idrok etish imkoniyatiga ega. Teatr har qanday davrda doim ham hayotiy saboqlar beruvchi jonli maskan hisoblangan shu bois bo_lsa kerak inson ma'naviyatini yuksaltirishda ushbu maskanning alohida o_rni bor, tarbiya va ma'naviyat o_chog_i bo_lgan teatrni har bir inson hayotiy saboqlar beruvchi jonli vositaga qiyoslash o_rinli .

O_zbekistonda turli yo_nalishga ixtisoslashtirilgan ko_plab teatrlar bor. Ular mavzu va janr jihatidan bir-biridan ajralib turadi. Toshkent davlat musiqali komediya teatri ham O_zbekistonda yagona operetta teatridir.

Operetta-bu opera yoki drama kabi katta chuqur mavzularni ochib bera oladigan san'at. Operattaning sintetik tabiatи aktiyoridan dramatik san'atda ham, raqsda ham yuksak mahorat talab qiladi. Ammo undagi asosiy so_z musiqaga tegishli.

Operetta o_yin-kulgining eng zamonaviy shakli bo_lib, u doimo ommaviy tomoshabinlarni jalg qiladi. Opetta tomoshabindan, aytaylik murakkab va yirik musiqiy asarlarni, simfoniyalarni, operalarni, kantatalarni tushunish kabi jiddiy musiqiy tayyorgarlik yoki musiqa madaniyatini talab qilmaydi. Operettaning shakli, uning kayfiyati va tushunchasini tushunish oson. Sevimli operettalariningizdan ariyalrn teatr zallaridan uzoqroqda ham eshitish mumkin .

O_zbekistonda yagona operetta teatri dastlab 1938-yil Samarqandda ochilgan. 1940-yil Toshkentga ko_chirilib, 1948- yilgacha faolit ko_rsatgan.

Toshkent davlat musiqali komediya teatri operetta o_z faoliyatini 1972-yilning avgust oyidadan boshlagan.

Unga badiiy raxbar etib, uzoq yillar davomida O_zbekiston akademik milliy teatri truppasini boshqargan O_zbekiston xalq artisti, professor A.I.Glinzburg tayinlangan, A.A.Vodchenko esa teatr direktori bo_lgan.

1972-yil 4-avgust Muqumiyl nomidagi Toshkent davlat musiqali drama va komediya teatri tomonidan I.Shtraus asari asosida, rejissyor A.Glinzburg —Веселая война operettasi sahnalaشتiriladi va shu tariqa teatr o_z faoliyatini boshlaydi.

Dastlab teatrda N.Pasikova (bosh baletmeyster), V.Spektr (bosh dirijor) bo_lib ishlagan. Toshkent operetta teatri repertuaridan dastlab —Chanita bo_sasi, —Tbilisi osmoni

ostida», —Silva», —Sirk malikasi», —Go_zallik tanlovi», —Donna Lyutsiya kabi zamonaviy va mumtoz operettalar o_rin olgan.

1981-yilda teatrga bosh rejissyor, Rossiyada xizmat ko_rsatgan artist K.Vasilev raxbarlik qiladi, u MDH mamlakatlarida keng namoyish etilgan spektakllar va birinchi musiqiy komediyalar —Бабий бунт», (M.Sholoxov. —Донские рассказы» asari asosida),

—Сладка Ягода» (V.Shukshin asari asosida) muallifi. Bu spektakllarning musiqasi mashhur bastakor E.Ptichkin tomonidan yozilgan.

K.Vasilev O_zbekistonda o_z ijodiy faoliyatini bastakor E.Solihov bilan hamkorlikda

—Хо_ja Nasriddin» nomli birinchi o_zbek operettasini yaratishdan boshlagan, keyinchalik bu teatrning o_ziga xos tashrif belgisiga aylangan.

Teatr tashkil topgan kundan boshlab repertuarida mavzusi to_rtta asosiy yo_nalish bilan bog_liq.

Birinchi yo_nalish - janr klassikasi , jahon musiqa teatrining Oltin fondiga kiruvchi asarlar. Klassik merosining spektakllari doimo tomoshabinlarning olqishiga sazovor bo_ladi. Zalda o_ziga xos ma‘naviy muhit yaratib, estetik zavq bag_ishaydi. —Цыгана-премьера»,

—Голландочки», —Баядеры» v.h.k.. (I.Kalman); —Моя прекрасная леди» (F.Low), —Веселые вдовы» va —Граф Люксембурга» (F.Legar) va boshqalar. Ular aktiyorlarning ijodiy doirasini kengaytib, ijodiy o_sishiga yordam berdi, teatr repetuarini boyitdi. Ushbu spektakllar tomoshabinlarning katta mehrini qozonib va tanqidchilarning ajoyib sharhlariga sazovor bo_lgan eng yaxshi spektakllardan biridir.

Ikkinchi yo_nalish-o_zbek mualliflarining original asarlari. —Хо_ja Nasriddin» (E.Solihov), —Тётя, я женюсь!»(kompozitor A.Ikromov, V.Bagramov pyesasi), —Сердце на ладони» (O_zbekton xalq artisti B.Zolirov xotirasiga bag_ishlan), —Однажды в Нью-Йорке» (I.Berlin) va boshqalar. Musiqiy komediyalari tomoshabinlarning nihoyatda manzur bo_lmoqda.

Uchunchi yo_nalish - Hamdo_slik (MDH) mamlakatlari zamonaviy operettalarining eng yaxshi asarlari. Ular orasida D.Listovning —Севастопольский вальс», Y.Milyutinning —Цирк зажигает огни», G.Kanchelining —Украденная невеста», B.Aleksandrovning —Свадьба в Малиновке» kabilar.

To_rtinchi yo_nalish - Bolalar repertuari. Teatr Markaziy Osiyo mintaqasida ushbu janrga ixtisoslashtirilgan yagona teatr bo_lib bolalarga rus va o_zbek tillarida musiqali ertaklarni taqdim etadi. Unda repertuari bolalar uchun spektakllar bilan to_dirildi: —Сказка о жадном Хасане» (D.Vildanov), —Обыкновенная горошина» (A.Kanaki), —Волшебная хурма», —Зачарованный кристал» (U.Solihov), —Чудесная дойра» (E.Solihova) va boshqa ko_plab spektakillar yosh tomoshabinlar orasida muvoffaqiyat qozonmoqda.

Operetta teatri jamoasining ijodi Rossiya, Ukraina, Qozog_iston, Qirg_iziston, Tojikiston va Boltiqbo_yi davlatlariga ham tanildi.

1990-yillarida Toshkent operetta teatri jamoasiga yosh iste‘dodli aktyor va rejissiyorlar qo_shiladi (rejissiyorlar M.Xachaturov, A.Kudryavsev, artistlar I.Buxaidze, N.Lapkova, K.Mitrofanov, B.Miskin, K.Izmaylov, S.Ortiqov va boshqalar). O_zbek kompazitorlarining teatr bilan ijodiy hamkorligi kuchaydi (A.Ergashevning —Nakalok», E.Solihovning —Tentak

qiz^l myuzikli, E.Qalandorovning —Temir xotin^l, A.Ikromovning —Bevalar ovunchog^{_il} va boshqalar).

Mustaqillik yillarida O^zbekistonda chinakamiga erkin ijod qilish, san‘at a madaniyatning barcha sohalarini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoit yaratildi. Mamalakatimiz raxbariyati tomonidan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bilan bir qatorda teatrlarning moddiy-texnik bazasini mustakamlash, ularni barcha ilg^{or} xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy teatr jihozlari va texnik vositalar bilan ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

2008-yilda Sergey Kapritlov badiiy rahbar va bosh rejissiyor etib tayinlandi. U ko^p qirrali, yuqori malakali rejissiyor va iste‘dodli raxbar bo^{lib}, teatr repertuarida yangi janr yo^{nali}shini olib keldi. Teatrda^{gi} faoliyati davomida I.Kalmanning —Сильва^l (kapital ta‘minlangan), A.Kolkerning —Свадьба Кречинского^l, U.Gajibekovning —Аршин Мал Алан^l, kabi spektakllarni muvaffaqiyatli sahnalashtirdi.

Teatr faoliyati davomida jamoa bilan G.Rezkina, G.Goldman, Yu.Po^{latov}, T.Xlebnikova kabi xormeysterlar ishladilar. 2010-yildan buyon teatrning bosh xormeysteri, O^zbekiston davlat konservatoriysi —Xor durijorligi bo^{limi} bitiruvchisi Yana Karabanovadir.

2012-yilda San‘at institutida musiqali komediya (operetta) teatri uchun maxsus qabul qilingan bitiruvchilar kursi tamomlab, ularning bir qismi truppaga xor artistlari sifatida ishga joylashadilar.

Hozirda operetta teatri qoshida studiyasi mavjd bo^{lib}, uni tamomlagan ko^{plab} yakkaxonlar o^zlarining ijodiy yo^{nllarini} xor artisti sifatida yuritib kelmoqdalar. Teatrning ish spetsifikasiga muvofiq holda, xor artistlari nafaqat vokal tayyorgarlik bilan, balki aktyorlik mahorati, xoreografiya bilan ham shug^{ullanadilar}. Orkestr, xor, balet guruxlari tarkibiga Toshkent o^{quv} yurtlari bo^{lmish} konservatoriya, musiqa va xoreografiya bilim yurtlarining bitiruvchilari jalb etilmoqda.